
Umumta'lim maktablariga quyosh elektr panellari o'rnatilmoqda

Tuman xalq ta'limi bo'limi tumanimizdagi umumta'lim maktablariga quyosh elektr panellarini o'rnatish ishlari amalga oshirilayotganini ma'lum qildi.

2022 yil 10 iyun kuni prezident rahbarligida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida joriy yil yakuniga qadar Xalq ta'limi vazirligi, tegishli tashkilotlar hamda mahalliy hokimliklar oldiga O'zbekistondagi 1000 ta umumta'lim maktabi binolarida quyosh elektr panellari va quyosh suv isitish qurilmalarini o'rnatish vazifasi qo'yilgandi.

Vazirlik 390 ta umumta'lim maktabiga, mahalliy hokimliklar esa 610 ta maktab binosiga quyosh elektr panellari o'rnatishi belgilab berilgan. Quyosh elektr panellari kamida 5-10 kVt quvvatga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunga qadar Andijon, Navoiy, Sirdaryo, Farg'ona hamda Toshkent viloyatlaridagi maktablarda mazkur turdagi quyosh elektr panellarini o'rnatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Hozirda tumanimizdagi 11, 17, 40, 48, 55, 60 va 64- umumta'lim maktablariga quyosh panellari yetkazib berilib, o'rnatish ishlari davom etmoqda.

2022-11-03 15:36:02